



KEKSA KISHILARGA IJTIMOIIY XIZMAT KO'RSARISH

MENGQOBILOVA NILUFAR AHMATOVNA

TANGIROVA MOHIGUL ESHMIRZO QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

pedagogika fakulteti 12 ijtimoiy ish

yo'nalishi talabalari.

Annotasiya: O'zbekiston sharoitida keksalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining mazmuni, uning asosiy yo'nalishlari, maqsadlari va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, keksa avlodning ijtimoiy muhofazasi, ularning hayot sifatini oshirish, tibbiy psixologik yordam ko'rsatish, ijtimoiy reabilitatsiya jarayonlarini takomillashtirish hamda davlat va nodavlat sektorining hamkorlik faoliyatlari.

Kalit so'z: keksalar, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mahalla tizimi, reabilitatsiya, tibbiy xizmat, yolg'izlikning oldini olish, saxovat uylari, davlat va nodavlat uylari.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание системы социального обслуживания пожилых людей в условиях Узбекистана, её основные направления, цели и современные подходы. Кроме того, рассматривается социальная защита пожилого поколения, повышение качества их жизни, оказание медицинской и психологической помощи, совершенствование процессов социальной реабилитации, а также деятельность государственных и негосударственных структур по сотрудничеству в этой сфере.



Ключевые слова: пожилые люди, социальное обслуживание, социальная защита, социальная поддержка, махаллинская система, реабилитация, медицинская помощь, профилактика одиночества, дома, „саховат“, государственные и негосударственные организации.

Annotation: this article analyzes the structure of the social service system for elderly people in Uzbekistan, its main directions, objectives, and modern approaches. It also discusses the social protection of the older generation, improvement of their quality of life, provision of medical and psychological assistance, enhancement of social rehabilitation processes, as well as the cooperation between governmental and non governmental sectors in this field.

Keywords: elderly people, social protection, social support, mahalla system, rehabilitation, medical assistance, prevention of loneliness, „saxovat“ homes, governmental and non governmental organizations.

Kirish: Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi avlodlar o'rtasidagi sog'lom ijtimoiy munosabatlar, insonparvarlik qadriyatlari va fuqorolarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, keksalar - jamiyatdagi tajribali, hurmatli, e'tibor va g'amxo'rlikka muhtoj qatlami hisoblanadi. Demografik o'zgarishlar, aholining qarish jarayoni, oila tarkibining zamonaviylashuvi kabi omillar keksa insonlarga ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.^[1]
O'ZBEKISTON respublikasi keksalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli davlat dasturlari qabul qilinib, Mehribonlik uylari, Murruvat internatlari, Saxovat uylarida hamda maxalla tizimi orqali keng ko'lamli xizmatlar amalga oshirilmoqda.

Keksalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish - bu ularning kundalik hayotini yengillashtirish, sog'lig'ini qo'llab-quvvatlash, psixologik barqarorligini ta'minlash



va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan kompleks jarayondir. U quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi:

Maishiy xizmatlar: uy ishlarida yordam berish, oziq-ovqat, dori darmon yetkazib berish.

Tibbiy xizmatlar: uy sharoitida tibbiyot kuzatuv, dispanser nazorati, reabilitatsiya tadbirlari.

Psixologik va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlash: yolgʻizlikni oldini olish, suhbatlar, maslahatlar, madaniy va ijtimoiy tadbirlarda ishtirokini tashkil etish.

Ijtimoiy - huquqiy yordam: hujjatlar bilan ishlashga koʻmak, pensiya, nafaqa masalalarida maslahat, ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishda yordamlar berish kerak.

Xulosa: Keksalarga ijtimoiy xizmat koʻrsatish - bu jamiyatning maʼnaviy darajasi, insonparvarlik tamoyillariga boʻlgan sadoqat hamda avlodlar oʻrtasidagi rishtalarning mustahkamligidan dalolat beradi. Davlat siyosati, aholining faolligi, nodavlat tashkilotlar hamkorligi va mahalla tizimining kuchli ishlashi natijasida keksa avlodning hayot sifati va farovonligi izchil ravishda yaxshilanib boriyapti. Mazkur yoʻnalishni yanada rivojlantirish esa jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Oʻzbekiston Respublikasi "aholi bandligi toʻgʻrisida"gi Qonuni
- 2 Oʻzbekiston Respublikasi "Ijtimoiy xizmatlar toʻgʻrisida"gi Qonuni
- 3 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori - "Keksalarni qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida".
- 4 "Ijtimoiy himoya asoslari". Oʻquv qoʻllanma. - Toshkent : Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022